

Date: 5th October-2025

MAKTABGACHA VA BOSHLANG'ICH TA'LIMDA FANLARARO
INTEGRATSIYANI TA'MINLASHDA AXBOROT VA INNOVATSION
TEXNALOGIYALARNING O'RNI

Ermatova Robiya Bekjonali qizi
muridiova39@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada maktabgacha va boshlang'ich ta'limning fanlararo o'zaro uzviyligi va uzluksizligini zamonaviy axborot resurslari orqali rivojlantirish hamda ushbu tadqiqot bo'yicha xorij va MDX mamlakatlari tadqiqotchilarining fikr-mulohazalar, zamonaviy axborot resurslarining imkoniyatlari ham ta'lim samaradorligiga ta'siri haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: Maktabgacha ta'lim, boshlang'ich ta'lim, fanlararo integratsiya, axborot, innovatsion texnologiyalar, zamonaviy axborot vositalari.

Abstract. This article provides information on the development of interdisciplinary interaction and continuity of preschool and primary education through modern information resources, as well as the opinions of researchers from foreign and CIS countries on this study, the impact of the capabilities of modern information resources on the effectiveness of education.

Keywords: Preschool education, primary education, interdisciplinary integration, information, innovative technologies, modern media.

Аннотация. В статье представлена информация о развитии межпредметного взаимодействия и преемственности дошкольного и начального образования посредством современных информационных ресурсов, а также мнения исследователей дальнего и ближнего зарубежья по данному вопросу, влиянию возможностей современных информационных ресурсов на эффективность образования.

Ключевые слова: Дошкольное образование, начальное образование, межпредметная интеграция, информация, инновационные технологии, современные медиа.

Kirish. Bugungi kunda axborot kommunikatsiya texnologiyalari va innovatsiyalarning rivojlanishi har bir soha taraqqiyotida tasavvur qilib bo'lmaydigan o'zgarishlarni yuzaga keltirdi. Ayniqda ta'lim-tarbiyaviy jarayonda zamonaviy axborot texnologiyari imkoniyatlaridan keng foydalanish, sohaga innovatsiyalarni joriy etish eng dolzarb vazifalardandir. Axborot kommunikatsiya texnologiyalarining ta'limning ilk bosqichi bo'lgan maktabgacha ta'lim sohasiga kiritilishi pedagog xodimlarning oldiga katta mas'uliyat qo'yilishi bilan birga, ularning o'z ustida ishlab, AKT bo'yicha bilim saviyasini oshirishni hamda amaliyotga joriy etishni talab qiladi. Shuningdek ularning izlanuvchanligi va ijodkorligini talab etadi. O'zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablarining asosiy vazifalaridan biri zamonaviy axborot vositalarini joriy etishdan iboratdir. Maktabgacha



Date: 5th October-2025

ta'lim tizimida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishdan kutiladigan natijalar quyidagilarda yaqqol namoyon bo'ladi:

birinchidan, maktabgacha ta'lim sohasida ta'lim sifati va bolalarni maktabga tayyorlash samaradorligining yaxshilanishi;

ikkinchidan, bolalarning erkin fikrlashi doirasi va dunyoqarashining kengayishi;

uchinchidan, bolalarning intellektual, ijtimoiy-hissiy va ijodiy rivojlanishi darajasining oshishi;

ota-onalar bilan maktabgacha ta'lim tashkiloti hamkorligining yanada mustahkamlanishi va qulaylikni ta'minlashi bilan afzaldir. AKT bo'yicha savodxonligini oshirish ustuvor vazifalardan biriga aylanmoqda.

Zamonaviy axborot maydoni boshlang'ich maktabda, balki maktabgacha yoshdagi bolalarda ham kompyuter ko'nikmalarini talab qiladi. Bugungi kunda axborot texnologiyalari ota-onalar, o'qituvchilar va boshlang'ich ta'limmutaxassislarining imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytirmoqda. Zamonaviy kompyuterdan foydalanish imkoniyatlari bolaning qobiliyatini rivojlantirishni eng to'liq va muvaffaqiyatli amalga oshirishga imkon beradi.

Asosiy qism. Maktabgacha ta'lim tizimida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish bir necha yo'nalishlarda o'z ifodasini topadi:

a) axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan bolalar bilan bo'lgan masofaviy ta'lim-tarbiya jarayonida foydalanish;

b) axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan masofaviy ta'limda pedagoglarning ota-onalar bilan hamkorlik jarayonida foydalanish;

c) axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan metodik ishlarni tashkil etishda, ta'lim sifatini oshirishda tarbiyachilar bilan ishlash jarayonida foydalanish¹.

Ko'pgina zamonaviy hisoblash muhitlari multimediyadir. Bunday muhitni o'zlashtirish jarayonida bola intellektuallashadi. Tadqiqot faoliyati bilan shug'ullanadi: u harakat qiladi, tekshiradi, aniqlaydi, xulosalar chiqaradi, mavjud vaziyatga muvofiq harakatlarni tuzatadi. Kompyuter muhiti buni juda tez o'rgatadi va maktabgacha yoshdagi didaktik o'yin dasturlarini o'zlashtirishdagi muvaffaqiyat bolalarga maktabda amaliy dasturlarni samarali o'zlashtirishga imkon beradi².

Hozirgi vaqtda ham integratsiya muammosiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Integratsiyani uslubiy hodisa sifatida e'tirof etgan I.Kalojvari va L.Pechnikovalar "Qanday qilib integrirlangan darsni tashkillash mumkin?" nomli maqolasida ta'kidlashlaricha: "Integratsiyaning kelajagi porloq. Bu usul natijasida o'quvchilar ongida olamning faol va ko'p tomonli tasviri shakllanadi. Talabalar olgan bilimlarini amalda faol foydalanishga boshlashadi. Chunki bilimlari osonroq amaliyotga xos xususiyatlarni aniqlaydi, yangicha fikrlay boshlaydi, fanni tez o'zlashtiradi, uning boshqa fanlarga bo'lgan munosabatini ravshanlashtiradi".

¹ Isroilova.D.K. Maktabgacha ta'limda axborot va innovatsion texnologiyalarining o'rni // Central asian academic journal of scientific research. – 2022. – №2(5). – B. 422-425

² Bazarova N.A. Maktabgacha ta'lim samaradorligini oshirishda zamonaviy axborot texnologiyalarining o'rni // Central asian academic journal of scientific research. – 2021. – №1(1). – B. 38-41



Date: 5th October-2025

Boshlang'ich bosqichlarda fanlarni integratsiyalash dars samaradorligini oshiradi, vaqtdan unumli foydalanishga olib keladi, darsni chuqur o'zlashtirishga yordam beradi, bo'sh vaqt o'ttiriladi va to'garaklarga jalb etiladi. Boshlang'ich ta'limda ona tili, o'qish, tabiat, tasviriy san'at darslarini integratsiyalash mumkin.

S.M.Isakova o'zining maqolasida maktabgacha va boshlang'ich ta'lim o'quvchilarini har tomonlama ravon, ongli, mazmunli o'qish, hisoblash ko'nikmalarini, savodli yozuv, shakllangan nutq va madaniyatini uyg'unlashtirish xulq-atvorli qilib tarbiyalash hamda o'quvchilarning dunyoga yaxlit, o'zaro bog'liq bo'lgan qarashlarini shakllantirish haqida so'z yuritib, hozirgi vaqtda boshlang'ich maktablarda o'qitish va tarbiyalashni tashkil qilish jarayonlari, fanlararo integratsiya muammolari haqida so'z boradi³.

Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim integratsiyasi xususiyatlari. Mamlakatimizda maktabgacha ta'lim 3-6 yoshli bolalarni dastlabki bosqichda ijtimoiylashtirish, tarbiyalash hamda maktab ta'limiga tayyorlash vazifalarini bajaradi. Boshlang'ich ta'lim esa o'quvchilarning aniq, tabiiy va gumanitar fanlar asoslari bo'yicha savodxonlik, hisoblash, ta'svirlash va o'qib tushunish ko'nikmalarini tarkib toptirish vazifasini amalga oshiradi. Shu jihatdan maktabgacha va boshlang'ich ta'lim integratsiyasida quyidagi xususiyatlar mavjudligini ta'kidlab o'tish lozim:

- 1) tushunchalar berish bo'yicha integratsiya;
- 2) tarbiya jarayoni bo'yicha integratsiya;
- 3) bolalarni faoliyatga tayyorlash bo'yicha integratsiya. "Integratsiya" tushunchasi o'zaro bog'liqlik, mantiqiy to'ldiruvchanlik va yagona yondoshuv ma'nolarini anglatadi⁴.

Maktabgacha va boshlang'ich maktab yoshidagi bolalarni tarbiyalashning umumiy maqsadlari:

- axloqiy-barkamol shaxsni tarbiyalash;
- bolalarning jismoniy va ruhiy salomatligini muxofaza qilish va mustahkamlash;
- bolaning individualligi, jismoniy va aqliy rivojlanishini saqlash va qullab-quvvatlash⁵.

Yagona ta'lim makonini yaratishda bir qator omillarni, eng avvalo, tizimga ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilari jalb etilishini hisobga olish zarur. Ta'lim muassasalari o'rtasida yagona jamiyat tizimini yaratishning birinchi yo'nalishi pedagog kadrlar bilan ishlash bo'ladi. Keyinchalik maktabgacha yoshdagi bolalar va ularning oilalari bilan bevosita ishlash bo'ladi⁶.

³ Isakova S. M. (2023). Maktabgacha va boshlang'ich ta'limda integratsion darslarning ahamiyati. *Евразийский журнал социальных наук, философии и культуры*, 3(4 Part 2), 122–124. извлечено от <https://in-academy.uz/index.php/ejsspc/article/view/13266>

⁴ O'tayev A., Haydarov Sh. Maktabgacha va boshlang'ich ta'limda integratsion jarayonlar innovatsiyasi. *Innovatsion texnologiyalar asosida fan, ta'lim, ishlab chiqarish integratsiyasini ta'minlash: muammo va yechimlar*. – 2024. – B. 227-229

⁵ Bakhtiyarova M.I., Kurbonova D.Y. Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim jarayoni uzviyligini ta'minlashning zaruriyati. *Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim jarayoni uzviyligini ta'minlashning zaruriyati*. – 2023. – №4(3). – B. 379-384

⁶ Abdiraxmanova L.A. Maktabgacha ta'lim tizimi va boshlang'ich ta'lim o'rtasidagi uzviylik // *Science and Education Scientific Journal*. - 2023. – №4(2). – B. 994-997

Date: 5th October-2025

G.B.Mo'minova, Z.I. Abdunazarova, Sh.M.Muhammedovalar "Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim o'rtasidagi uzviylik" nomli tadqiqotida maktabgacha va boshlang'ich ta'lim o'rtasidagi uzviylikni, 6-7 yoshda o'zlashtirilgan matematik tushunchalar doirasi (geometrik shakl, kattalik va shartli o'lchovlar) boshlang'ich sinf matematika darslarida kengayib borilishi, tayanch bilimlarga ega bo'lmagan bolalarning o'zlashtirishi talab darajasida bo'lmasligi haqida yoritilib bergan⁷.

Xulosa. Bugungi kunda maktabgacha va boshlang'ich tizimning o'zaro fanlararo uzviyligi ta'minlash dolzarb vazifalardan bir sanaladi. Ushbu uzviylikni ta'minlash maqsadida maktabgacha ta'lim tashkilotlarida turli axborot kommunikatsiya hamda zamonaviy texnologiya vositalardan foydalanilmoqda. Masalan, elementar matematik tasavvurlarni shakllantirish mashg'ulotida ushbu vositalar hamda online platformalarni qo'llash mashg'ulotlarni birmuncha samarali borishini ta'minlamoqda. Buning asosiy sababi online platformalarda turli shakllar, raqamlar, ranglarning o'zaro uzviyligi va ular yordamida ishlab chiqilgan o'yinlar bolalarni diqqatini jalb qiladi va qiziqarli bo'lishini ta'minlaydi. Uy sharoitida ham bolalar platforma yoki elektron resurslardan zamonaviy vositalar orqali foydalanish natijasida bilimlarni mustaqil olish imkoniyati mavjud. Demak, uy sharoitida ham mashg'ulotlarni o'tish orqali maktabgacha va boshlang'ich ta'lim uzviyligini ta'minlash mumkin. Buning uchun qiziqarli, mazmunga boy bo'lgan online platformalarni yaratish kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. Abdiraxmanova L.A. Maktabgacha ta'lim tizimi va boshlang'ich ta'lim o'rtasidagi uzviylik // Science and Education Scientific Journal. - 2023. – №4(2). – B. 994-997
2. Bakhtiyarova M.I., Kurbonova D.Y. Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim jarayoni uzviyligini ta'minlashning zaruriyati. Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim jarayoni uzviyligini ta'minlashning zaruriyati. – 2023. – №4(3). – B. 379-384
3. Bazarova N.A. Maktabgacha ta'lim samaradorligini oshirishda zamonaviy axborot texnologiyalarining o'rni // Central asian academic journal of scientific research. – 2021. – №1(1). – B. 38-41
4. Isakova S. M. (2023). Maktabgacha va boshlang'ich ta'limda integratsion darslarning ahamiyati. *Евразийский журнал социальных наук, философии и культуры*, 3(4 Part 2), 122–124. извлечено от <https://in-academy.uz/index.php/ejsspc/article/view/13266>
5. Isroilova.D.K. Maktabgacha ta'limda axborot va innovatsion texnologiyalarining o'rni // Central asian academic journal of scientific research. – 2022. – №2(5). – B. 422-425
6. Mo'minova G.B., Abdunazarova Z.I., Muhammedova Sh.M. Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim o'rtasidagi uzviylik. international scientific and practical conference strategies for improving and developing the quality of preschool education: problems, solutions and international experience, april 16-17, 2025.

⁷ Mo'minova G.B., Abdunazarova Z.I., Muhammedova Sh.M. Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim o'rtasidagi uzviylik. international scientific and practical conference strategies for improving and developing the quality of preschool education: problems, solutions and international experience, april 16-17, 2025.



Date: 5th October-2025

7. O'tayev A., Haydarov Sh. Maktabgacha va boshlang'ich ta'limda integratsion jarayonlar innovatsiyasi. Innovatsion texnologiyalar asosida fan, ta'lim, ishlab chiqarish integratsiyasini ta'minlash: muammo va yechimlar. – 2024. – B. 227-229

